


107. Hajm va hajm birliklari

hajm
litr



1. Har bir juftlikdagi idishlarning hajmini taqqoslang. Qaysi juftlikka aniq javob berib bo'lmaydi?



2. Hisoblang.

$5\text{ l} + 11\text{ l} =$	$60\text{ l} - 30\text{ l} =$
$14\text{ l} + 25\text{ l} =$	$56\text{ l} - 22\text{ l} =$
$70\text{ l} + 17\text{ l} =$	$16\text{ l} - 9\text{ l} =$



3. Taqqoslang va xatoni toping.

$25\text{ l} \square 52\text{ l}$	$12\text{ l} + 1\text{ kg} \square 13\text{ l}$
$15\text{ kg} \square 12\text{ kg}$	$20\text{ kg} + 2\text{ l} \square 20\text{ kg}$

Faqat bir turdagi kattaliklarni taqqoslash mumkin.






4. Fabrikada har xil retseptlar bo'yicha ichimliklar tayyorlanadi. Har qaysi holatda necha litr ichimlik hosil bo'ladi?

Suv (l)	Meva sharbati (l)	Shakar qiyomi (l)	Ichimlikning umumiy miqdori (l)
9	4	2	
9	5	3	
9	2	8	



5. Sharbat quyilgan stakanlarni shunday bo'yangki, ularning tartibi takrorlanmasin.



6. Rasmdan foydalanib, bo'sh kataklarni to'ldiring. B, S va I harflari ortida qaysi so'zlar yashiringan?

B + S = I	4 + 5 = 9
S + B = □	5 + □ = □
I - □ = S	9 - □ = □
□ - S = □	□ - □ = □

